

IMKONI TOPILDI

Ertak

O'rmondagi to'rt jonivor-pahlavon Begemot Begi-begi, chapdast Maymuncha Moli-Moli, arg'imchoq Bo'g'ma ilon Ila-ila, sergap va xushchaqchaq to'tiqush Ruri-Ruri o'zaro do'stlashibdilar.

Ular shunchalik inoq do'st bo'libdilarki, oralaridan qil ham o'tmas, bir kun bir-birlarini ko'rmasalar, sog'inib qolarkanlar. Bo'sh vaqtlarini doim o'yin-kulgi, xushchaqchaqlik bilan o'tkazisharkan. Chapdast maymuncha Moli-Moli birdan daraxtlarga chiqib ketib, do'stlariga banan va ananaslar terib tushib, ularni mehmon qilsa, Begemot Begi-Begi ularni ustlariga mindirib olib, o'zi kema bo'larkan va ko'lni aylantirarkan. To'tiqush Ruri-Ruri esa do'stlariga ichakuzdi hangomalardan aytib, rosa kuldirarkan. Charchaganlarida esa Bo'g'ma ilon Ila-ila daraxtlarga o'rmalab, ular uchun ajoyib belanchakka aylanarkan va ular belanchakda miriqib dam olarkanlar, lekin Begemot Begi-Begi bu belanchakdan doimo o'mbaloq oshib tushib ketaverarkan. Bundan do'stlar rosa miriqib kulisharkan.

Ular har tong quyosh chiqishi bilan ulkan daraxt soyasida uchrashishar va birga mehnat qilishib, o'yin-kulgi ham qilisharkan. Shunday damlardan birida ular rosa chanqab ketishibdi. Sergap to'tiqush Ruri-Ruri gap boshlabdi:

- D-d-o'stlar, m-m-en chanqab ketdim. Yuring suv ichgani b-b-oraylik!
- Men ham juda chanq-a-a-b ketdi-i-m, - debdi Bo'g'ma Ilon Ila-ila asta shivirlab. Qolganlar ularni qo'llab-quvvatlashibdi. Shunday qilib, ular ko'l tomon yo'lga tushibdilar. Borsalar, ko'lda suv kamayib ketibdi. Biroq unga yaqin borishning ilojisi yo'q. Chunki ko'l timsohlarga to'la. Ko'l atrofida hovuzlar ham bo'lib, ko'l suv bilan to'lganda hovuzlarda ham suv limmo-lim bo'lardi. Ammo yong'irning kam yog'ayotganligi sababli, ko'l suvi ancha qirg'oqdan chekingan edi. Hovuzda ham suv uning tubidagina bor edi xolos. Do'stlar qanday qilib hovuzga tushib, suv ichsak ekan, deb o'ylanib qolishibdi. Bordi-yu uning ichiga tushib ketsang, chiqib olishing amri mahol. Hayoting xavf ostida qoladi.

Shunda Begemot Begi-Begining miyasiga bir fikr kelibdi va:

- Xavotir bo'lmang, do'stlarim!-debdi. Do'stlari unga nima deysan, deganday qarab qolishibdi.

Begemot Begi-Begi asta hovuzga tushibdi. Pahlavon Begemotning tog'day ulkan gavdasi ko'lmakdek bo'lib turgan hovuz suvining qirg'oqlari bilan bo'ylashib turgan limmo-lim dengizga aylantirib qo'yibdi go'yo. Bundan hayratda qolgan do'stlari chapdast Maymuncha Moli-Moli, arg'imchoq Bo'g'ma ilon Ila-ila, sergap va xushchaqchaq to'tiqush Ruri-Ruri qichqirib yuborishibdi. To'tiqush Ruri-Ruri tinmay:

Yash-shavor-r, pahlavon Begi-Begi!-deya gapirsa, chapdast Maymuncha Moli-Moli do'stini olqishlab tinmay chapak chalardi...

Qirg'oqdagi do'stlar miriqib suv ichib, chanqoqlarini qondiribdilar. Shundan so'ng suv ichish navbati Begemot Begi-begiga kelibdi. U ham og'zini katta ochib, hovuzdagi suvni to'yib simiribdi va qirg'oqqa chiqibdi. Ne ko'z bilan qarasalar, hovuzdagi suv yarmidan ham kamayib ketibdi. Buni do'stlar ko'rib, rosa kulishibdi va Begemot Begi-begiga rahmat aytishibdi...

O'rmondagi bu do'stlarga barcha jonivorlar havas qilisharkan. Chunki ular quvonchli kunda ham, boshga tashvish tushgan vaqtda ham doim bir-birlariga ko'makdosh bo'lib, yonma-yon turisharkan. Ulaming do'stligi abadiy ekan.